

**«TURONBANK» AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI AKSIYADORLARINING
NAVBATDAGI YILLIK HISOBOT UMUMIY YIG'ILISHI**

BAYONIDAN KO'CHIRMA

**2023 yil 26 iyun
soat 11:00**

AS-1

**Toshkent shahri Abay
ko'chasi, 4a-uy**

Chiqarilgan ovoz beruvchi aksiyalarning umumiy soni:
868 057 456 dona.

Joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarning umumiy soni: **868 057 456** dona.

Yig'ilishda qatnashish uchun ro'yxatga olingan ovoz beruvchi aksiyalarning umumiy soni: **860 589 666** dona.

Yig'ilishda qatnashganlar soni: Aksiyadorlar va ularning nomidan qatnashayotgan vakillar soni **5** kishi.

Jumladan: ishonchnoma orqali qatnashayotgan vakillar soni - **4** kishi va o'z nomidan qatnashayotgan aksiyadorlar soni – **1** kishi.

KVORUM – 99,14%

Shuningdek, bank Kengashi a'zolari bank Boshqaruvi Raisi Ch.S.Mirzayev hamda bank Boshqaruvi a'zolari, departament direktorlari ishtirok etdilar.

Aksiyadorlarning navbatdagi yillik hisobot umumiy yig'ilishiga bank Kengashi raisi J.H.Karshibayev xizmat safarida bo'lganligi sababli Kengash a'zosi **F.X.Malikov** raislik qildi.

Yig'ilish kotibi: **J.B.Botirov**

Umumiy yig'ilish sanoq komissiyasi raisi "Turonbank" ATB Xavfsizlik departamenti direktori – Tangniberdiyev Nuriddin Ibragimovich, Sanoq kommissiya a'zolari esa "Turonbank" ATB Moliya bozidagi operatsiyalar departamenti direktori – Qutbiddinov Isomiddin Zoxriddin o'g'li, "Turonbank" ATB Chakana biznes departamenti direktori – Vaxabov Eldor Baxtiyor o'g'li aksiyadorlarning ovozlarini hisoblash va yig'ilish kvorumi mavjudligini aniqlash bo'yicha ish olib bordilar.

Yig'ilish raisi aksiyadorlardan bank Kengashi tomonidan tuzilgan sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlab berishlarini so'radi.

Yig'ilishda sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibi bir ovozdan tasdiqlandi.

Umumiy yig'ilishga Raislik qiluvchi **F.X.Malikov** O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuniga hamda "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Ustaviga amal qilib, 2023 yil 2 iyunda bank Kengashining K-23-sonli qaroriga asosan bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik hisobot umumiy yig'ilishini 2023 yil 26 iyun kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilinganligi, yig'ilishni o'tkazish to'g'risidagi xabar va yig'ilish kun tartibi 2023 yil 3 iyun kuni "Xalq so'zi" gazetasining 113(8456)-sonida hamda "Ishonch" gazetasining 69(4821)-sonida e'lon qilinganligini, shuningdek bank Kengashining 2023 yil 16 iyundagi K-27-sonli Qaroriga asosan Umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan o'zgartirishlar "Ishonch" gazetasining 2023 yil 17 iyundagi 75-76-sonida qonunda belgilangan tartibda aksiyadorlarga xabar qilinganligini hamda barcha tashkiliy tadbirlar to'liq amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tdi.

.....

Yig'ilish hay'atiga bank Kengashi a'zolari – Malikov Fattox Xalilovich va Xabibullayev Sardor Alisher o'g'li, Bank Boshqaruvi Raisi Mirzayev Chori Sadibaqosovich hamda yig'ilish kotibiyatiga Botirov Jamshid Botirovich saylandilar.

KUN TARTIBI:

Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik hisobot umumiy yig'ilishi kun tartibi quyidagicha e'lon qilingan:

1. Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik hisobot umumiy yig'ilishining sanoq komissiyasi shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. "Turonbank" ATB aksiyadorlarining navbatdagi yillik hisobot umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash.
3. Bankning 2022 moliyaviy yildagi faoliyati yakunlari bo'yicha hisobotini hamda 2023 yilda bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida bank Boshqaruvining hisobotini tasdiqlash.
4. Bankning 2022 yildagi faoliyati yakunlari bo'yicha tashqi audit xulosasini ko'rib chiqish.
5. Bank Kengashining 2022 yildagi faoliyati bo'yicha hisobotini hamda bankning rivojlanish strategiyasiga erishishi bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash.
6. Bankning 2022 yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, buxgalterlik balansi, foyda va zararlar hisobini tasdiqlash.

7. Bankning o'tgan yillarning taqsimlanmagan (jamg'arilgan) foydasini, shu jumladan bankning 2022 yil yakunlari bo'yicha olingan sof foydasini taqsimlash tartibini tasdiqlash.

8. Bankda o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko'rib chiqish.

9. Bankning 2023 yil uchun tashqi auditorini tasdiqlash va unga to'lanadigan xizmat haqining eng ko'p miqdorini belgilash.

10. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash.

11. Yangi tahrirdagi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi to'g'risidagi Nizom»ni tasdiqlash.

12. Yangi tahrirdagi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Kengashi to'g'risidagi Nizom»ni tasdiqlash.

13. Yangi tahrirdagi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruvi to'g'risidagi Nizom»ni tasdiqlash.

14. Yangi tahrirdagi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari, Kuzatuv kengashi Raisi va a'zolari faoliyatini baholash qoidalari»ni tasdiqlash.

15. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining Korporativ boshqaruv Kodeksi»ni bekor qilish.

16. "Turonbank" ATB boshqaruv faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash.

17. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

18. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bankning kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar hamda yirik bitimlar ro'yhatini aniqlash va ularning amalga oshirilishini ma'qullash.

19. Bank balansidan tashqari hisobraqamiga olingan aktivlarni hisobdan chiqarish.

20. Bank Boshqaruvi Raisi bilan tuzilgan mehnat shartnomasining muddatini uzaytirish masalasini ko'rib chiqish.

Bank aksiyadorlarining yillik hisobot umumiy yig'ilishiga Raislik qiluvchi **F.X.Malikov** bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan yig'ilish reglamentini taklif etdi va ovozga qo'ydi. (ilova qilinadi, 2-ilova).

Reglament bir ovozdan tasdiqlandi.

Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik hisobot umumiy yig'ilishi kun tartibining **uchinchi** masalasi yuzasidan Boshqaruv Raisi **Ch.S.Mirzayev** so'zga chiqib, Bankning 2022 moliyaviy yildagi faoliyati yakunlari bo'yicha hisoboti hamda 2023 yilda bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida bank Boshqaruvining hisoboti to'g'risida ma'ruza qildi (hisobot ilova qilinadi, 3-ilova).

.....

Kun tartibidagi **ettinchi** masalasi, ya'ni Bankning o'tgan yillarning taqsimlanmagan (jamg'arilgan) foydasini, shu jumladan bankning 2022 yil yakunlari bo'yicha olingan sof foydasini taqsimlash tartibini tasdiqlash yuzasidan **Majlis Raisi** bank Kengashining taklifi quyidagicha bildirilganligini aytib o'tdi, jumladan:

"Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi Qonunining 39-moddasiga asosan Markaziy bank Nazorat Qo'mitasining 2023 yil 6 iyundagi 526/3-sonli Qaroriga muvofiq Turonbankka dividendlar to'lash orqali foydani taqsimlamaslik bo'yicha talab o'rnatilgan edi.

O'z navbatida Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi 166-sonli Qarorida davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan mamlakatni muhim loyihalari bo'lgan homiylik va boshqa beg'araz yordam uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlariga asosan yo'naltiriladigan mablag'larning belgilangan miqdoridan ortiq qismi davlat ulushi bo'yicha dividendlar sifatida tan olinishi, ushbu dividendlar davlat byudjetiga to'lashda ushlab qolinishi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dividendlarni homiylik mablag'larini qoplashga yo'naltirish orqali foydani taqsimlanishini inobatga olib, bu bo'yicha Markaziy bank Nazorat Qo'mitasining 2023 yil 6 iyundagi 526/3-sonli Qaroriga tadbiq etilmaslik yuzasidan Markaziy banki Nazorat Qo'mitasining 2023 yil 23 iyundagi 530/4-sonli Qarori qabul qilingan.

Bankning o'tgan yillarning taqsimlanmagan (jamg'arilgan) foydasi 2023 yil 1 yanvar holatiga jami **126,5 mlrd.** so'mni shundan, 2021 yil yakunlari bo'yicha **73,6 mlrd.** so'm hamda 2022 yil yakuni bo'yicha **52,9 mlrd** so'm sof foydani tashkil etmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, 2022 yil yakunlari bo'yicha olingan **52 867 484 172.40** so'm sof foydasini taqsimlanmagan foydada qoldirish hamda bankning o'tgan yillarning **73 661 346 857,87** so'mlik taqsimlanmagan (jamg'arilgan) foydasini quyidagi tartibda taqsimlash taklif etilmoqda, Jumladan:

- Nominal qiymati 1 700 so‘m bo‘lgan bir dona imtiyozli aksiya uchun 340 so‘m yoki nominal qiymatiga nisbatan 20 foiz miqdorida dividend to‘lash uchun — **1 688 950 000,00** so‘m;

- Nominal qiymati 1 700 so‘m bo‘lgan bir dona oddiy aksiya uchun 28,6087221033 so‘m yoki nominal qiymatiga nisbatan 1,6828660061 foiz miqdorida dividend to‘lash uchun – **24 834 014 528,40** so‘m;

Dividend to‘lash muddatining boshlanish sanasi 2023 yil 7 iyul etib belgilansin va 2023 yil 28 avgustgacha amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to‘lab berish.

.....

Bankning o‘tgan yillarning taqsimlanmagan (jamg‘arilgan) foydasidan qolgan **47 138 382 329,47** so‘mini taqsimlanmagan foydada qoldirish.

Yig‘ilish raisi **F.X.Malikov** bank aksiyadorlari va ularning vakillaridan ushbu masala yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda qaror loyihasi asosida byulletenlar orqali ovoz berishlarini so‘radi.

.....

Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik hisobot umumiy yig‘ilishi kun tartibining **to‘qqizinchi masalasi** ya‘ni, bankning 2023 yil uchun tashqi auditorini tasdiqlash va unga to‘lanadigan xizmat haqqining eng ko‘p miqdorini belgilash masalasi bo‘yicha bank Ichki audit departamenti direktori **U.I.Tangirov** so‘zga chiqib, quyidagilarni gapirdi:

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59 moddasiga muvofiq, majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish» aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi.

2023 moliyaviy yil faoliyati natijalarini tashqi auditdan o‘tkazish maqsadida, bank tomonidan tijorat banklarini halqaro audit tekshiruvidan o‘tkazish huquqiga ega bo‘lgan auditorlik tashkilotlar o‘rtasida eng maqbul va arzon narxlarni aniqlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risidagi” qonunning 52-moddasiga asosan tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risida e‘lon maxsus axborot portalida joylashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 dekabrda PQ-4544-sonli Qaroriga binoan elektron savdolar birjasi orqali tanlov o‘tkazildi.

Auditorlik tashkilotlari tomonidan bildirilgan takliflar o‘rganilib, ular bilan shartnomalarni har yili aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan

shartnoma shartlariga asosan to'lov summasini qayta belgilash sharti bilan 3 yil muddatga tuzish, auditorlik hizmatlari uchun to'lov summasining chegirma qilinishiga erishilishi mumkinligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, o'tkazilgan elektron savdolar natijasi ko'ra, "Ernst Young" uch yilga bankni tashqi auditdan o'tkazish bo'yicha 6 mlrd 451 mln so'mlik QQS bilan, bunda 2023-yil uchun tashqi auditorga to'lanadigan xizmat haqi 2 mlrd 262 mln so'm (QQS bilan), 2024 yil uchun tashqi auditorga to'lanadigan xizmat haqi 2 mlrd 60 mln so'mlik (QQS bilan) hamda 2025-yil uchun tashqi auditorga to'lanadigan xizmat haqi 2 mlrd. 128 mln. so'mlik (QQS bilan) eng maqbul va arzon taklifi bilan elektron savdo g'olibi bo'ldi.

Yig'ilish raisi **F.X.Malikov** bank aksiyadorlari va ularning vakillaridan ushbu masalani yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda qaror loyihasi asosida byulletenlar orqali ovoz berishlarini so'radi.

.....

Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik hisobot umumiy yig'ilish kun tartibining **yigirmanchi** masalasi bo'yicha **Majlis raisi** so'zga chiqib, quyidagilarni gapirdi:

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasiga muvofiq:

"Jamiyat direktorining, jamiyat boshqaruvi a'zolarining, ishonchli boshqaruvchining huquq va majburiyatlari tegishincha ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida, jamiyat ustavida hamda ularning har biri jamiyat bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinishi" ko'rsatib o'tilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib quyidagi qaror loyiha bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik hisobot umumiy yig'ilishi e'tiboriga havola etilmoqda:

"Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruv Raisi Mirzayev Chori Sadibaqosovich o'rtasida uni ishga yollash to'g'risida tuzilgan shartnomaning muddati bir yilga uzaytirilsin.

Yig'ilish Raisi kun tartibidagi masalalar bo'yicha byulletenlar orqali ovoz berilishini aytdi.

.....

Sanoq komissiyasi raisi **N.I.Tangniberdiyev** "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlarining yillik hisobot umumiy yig'ilishidagi ovoz berish

natijalarini hisoblash bo'yicha sanoq komissiyasining 3-sonli bayonnomasini o'qib eshittirdi (16-ilova).

Jumladan, ovoz berish natijalari hisoblanganda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

Yig'ilishda ishtirok etgan, ovoz berish huquqiga ega bo'lgan **5 dona** byulleten bo'yicha jami ovozlar soni **860 589 666 ta**. Ovozga qo'yilgan masala yuzasidan ovozlar quyidagicha taqsimlangan:

Kun tartibining birinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

"Tarafdorlar" – **5 ta** byulleten bo'yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya'ni **100%**;

"Qarshilar" – yo'q;

"Betaraflar" – yo'q.

Kun tartibining ikkinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

"Tarafdorlar" – **5 ta** byulleten bo'yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya'ni **100%**;

"Qarshilar" – yo'q;

"Betaraflar" – yo'q.

Kun tartibining uchinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

"Tarafdorlar" – **5 ta** byulleten bo'yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya'ni **100%**;

"Qarshilar" – yo'q;

"Betaraflar" – yo'q.

Kun tartibining to'rtinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

"Tarafdorlar" – **5 ta** byulleten bo'yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya'ni **100%**;

"Qarshilar" – yo'q;

"Betaraflar" – yo'q.

Kun tartibining beshinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

"Tarafdorlar" – **5 ta** byulleten bo'yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya'ni **100%**;

"Qarshilar" – yo'q;

"Betaraflar" – yo'q.

Kun tartibining oltinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

"Tarafdorlar" – **5 ta** byulleten bo'yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya'ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining yettinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **5 ta** byulleten bo‘yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya‘ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining sakizinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **5 ta** byulleten bo‘yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya‘ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining to‘qqizinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **5 ta** byulleten bo‘yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya‘ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining o‘ninchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **4 ta** byulleten bo‘yicha **787 494 258 ta** ovoz, ya‘ni **92%**;

“Qarshilar” – **1 ta** byulleten bo‘yicha **73 095 408 ta** ovoz, ya‘ni **8%**;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining o‘n birinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **4 ta** byulleten bo‘yicha **787 494 258 ta** ovoz, ya‘ni **92%**;

“Qarshilar” – **1 ta** byulleten bo‘yicha **73 095 408 ta** ovoz, ya‘ni **8%**;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining o‘n ikkinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **4 ta** byulleten bo‘yicha **787 494 258 ta** ovoz, ya‘ni **92%**;

“Qarshilar” – **1 ta** byulleten bo‘yicha **73 095 408 ta** ovoz, ya‘ni **8%**;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining o‘n uchinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **4 ta** byulleten bo‘yicha **787 494 258 ta** ovoz, ya‘ni **92%**;

“Qarshilar” – **1 ta** byulleten bo‘yicha **73 095 408 ta** ovoz, ya‘ni **8%**;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining o‘n to‘rtinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **3 ta** byulleten bo‘yicha **786 622 988 ta** ovoz, ya‘ni **91,41%**;

“Qarshilar” – **1 ta** byulleten bo‘yicha **73 095 408 ta** ovoz, ya‘ni **8,49%**;

“Betaraflar” – **1 ta** byulleten bo‘yicha **871 260 ta** ovoz, ya‘ni **0,10%**;

Kun tartibining o‘n beshinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **3 ta** byulleten bo‘yicha **786 622 988 ta** ovoz, ya‘ni **91,41%**;

“Qarshilar” – **1 ta** byulleten bo‘yicha **73 095 408 ta** ovoz, ya‘ni **8,49%**;

“Betaraflar” – **1 ta** byulleten bo‘yicha **871 260 ta** ovoz, ya‘ni **0,10%**;

Kun tartibining o‘n oltinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **5 ta** byulleten bo‘yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya‘ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining o‘n yettinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **5 ta** byulleten bo‘yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya‘ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining o‘n sakkizinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

(O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunining 88-moddasiga asosan ovoz berishda bank bilan affillangan shaxs hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik islohotlar agentligi (73 095 408 ta ovoz) va O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining (786 466 842 ta ovoz) ovozlari hisobga olinmaydi.)

“Tarafdorlar” – **3 ta** byulleten bo‘yicha **1 027 416 ta** ovoz, ya‘ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining **o‘n to‘qqizinchi** masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **4 ta** byulleten bo‘yicha **859 718 406 ta** ovoz, ya‘ni **99.9%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – **1 ta** byulleten bo‘yicha **871 260 ta** ovoz, ya‘ni **0.1%**;

Kun tartibining **yigirmanchi** masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **5 ta** byulleten bo‘yicha **860 589 666 ta** ovoz, ya‘ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Xulosa: Aksiyadorlarning navbatdagi yillik hisobot umumiy yig‘ilishi kun tartibiga qo‘yilgan barcha masalalar bo‘yicha bank Kengashining takliflari ko‘pchilik ovoz bilan tasdiqlandi.

Yig‘ilish Sanoq komissiyasi majlisining mazkur bayonnomasini bir ovozdan ma‘lumot uchun qabul qildi.

Shu bilan bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi o‘z ishini tamomladi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalar yuzasidan berilgan ovozlar yakuniy hisobiga ko‘ra, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlarining yillik hisobot umumiy yig‘ilishining qarori qabul qilindi.

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
AKSIYADORLARINING NAVBATDAGI YILLIK HISOBOT UMUMIY
YIG‘ILISHI Q A R O R I:**

1. Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik hisobot umumiy yig‘ilishi sanoq komissiyasining shaxsiy tarkibi quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

– Tangniberdiyev Nuriddin Ibragimovich – “Turonbank” ATB Bank xavfsizligi departamenti direktori;

– Qutbiddinov Isomiddin Zoxriddin o‘g‘li – “Turonbank” ATB Moliya bozoridagi operatsiyalar departamenti direktori;

– Vaxabov Eldor Baxtiyor o‘g‘li - “Turonbank” ATB Chakana biznes departamenti direktori.

2. Bank aksiyadorlarining navbatdagi, yillik hisobot umumiy yig‘ilishining reglamenti tasdiqlansin. (2-ilova).

3. Bankning 2022 moliyaviy yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha hisoboti hamda 2023 yilda bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida bank

Boshqaruving hisoboti tasdiqlansin (3-ilova).

4. Bankning 2022 yildagi faoliyati yakunlari bo'yicha tashqi audit xulosasi ma'lumot uchun qabul qilinsin. (4-ilova).

5. Bank Kengashining 2022 yildagi faoliyati bo'yicha hisoboti hamda bankning rivojlanish strategiyasiga erishishi bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin. (5-ilova).

6. Bankning 2022 moliyaviy yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, buxgalterlik balansi, foyda va zararlar hisobi tasdiqlansin (6-ilova).

7. - Bankning 2022 yil yakunlari bo'yicha olingan **52 867 484 172.40** so'm sof foydasini taqsimlanmagan foydada qoldirilsin;

Bankning o'tgan yillarning **73 661 346 857,87** so'mlik taqsimlanmagan (jamg'arilgan) foydasi quyidagi tartibda taqsimlansin:

- Nominal qiymati 1 700 so'm bo'lgan bir dona imtiyozli aksiya uchun 340 so'm yoki nominal qiymatiga nisbatan 20 foiz miqdorida dividend to'lash uchun — **1 688 950 000,00** so'm;

- Nominal qiymati 1 700 so'm bo'lgan bir dona oddiy aksiya uchun 28,6087221033 so'm yoki nominal qiymatiga nisbatan 1,6828660061 foiz miqdorida dividend to'lash uchun – **24 834 014 528,40** so'm;

Dividend to'lash muddatining boshlanish sanasi 2023 yil 7 iyul etib belgilansin va 2023 yil 28 avgustgacha amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to'lab berilsin.

.....

Bankning o'tgan yillarning taqsimlanmagan (jamg'arilgan) foydasidan qolgan **47 138 382 329,47** so'mini taqsimlanmagan foydada qoldirilsin.

8. «Turonbank» aksiyadorlik tijorat bankida Korporativ boshqaruv tizimini baholash maqsadida "Audit Fair Services" MChJ tomonidan "Turonbank" ATBda 2022 yil yakuni bilan Korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari tasdiqlansin. (Ilova -7)

.....

9. Bankning 2023-2025 yillar uchun har yili aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan shartnoma shartlariga asosan to'lov summasini qayta belgilash sharti bilan 3 yil muddatga tashqi auditori etib, Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalida elektron savdolari natijasida eng maqbul va arzon taklif bergan tashqi auditorlik tashkiloti "ERNST YOUNG" tasdiqlansin va unga 2023 yil uchun to'lanadigan hizmat haqqining eng ko'p miqdori QQS bilan 2 262 400 000,0 so'm deb belgilansin.

10. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining yangi taxrirdagi Ustavi tasdiqlansin. (8-ilova)

11. Yangi tahrirdagi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi to'g'risidagi Nizom» tasdiqlansin. (Ilova -9)

12. Yangi tahrirdagi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Kengashi to'g'risidagi Nizom» tasdiqlansin. (Ilova -10)

13. Yangi tahrirdagi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruvi to'g'risidagi Nizom» tasdiqlansin. (Ilova -11)

14. Yangi tahrirdagi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari, Kuzatuv kengashi Raisi va a'zolari faoliyatini baholash qoidalari» tasdiqlansin. (Ilova -12)

15. Bank Kengashi tomonidan "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining Korporativ boshqaruv Siyosati» tasdiqlanganligi munosabati bilan "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining Korporativ boshqaruv Kodeksi» bekor qilinsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi tomonidan ishlab chiqilgan "Turonbank" ATB boshqaruv faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari (KPI) tasdiqlansin. (Ilova -13)

17. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining yangi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlansin. (Ilova -14)

18. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bankning kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar hamda yirik bitimlar ro'yhati tasdiqlansin hamda ularni amalga oshirilishi ma'qullansin. (15-ilova)

19. Bank balansidan tashqari hisobraqamiga olingan undirilmagan jami 423 689 853 so'mlik foiz qarzdorliklar hisobdan chiqarilsin.

20. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruv Raisi Mirzayev Chori Sadibaqosovich o'rtasida uni ishga yollash to'g'risida tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini bir yil muddatga uzaytirishga ruxsat berilsin.

21. Mazkur qarorlar ijrosini nazorat qilish "Turonbank" ATB Kengashi zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish kotibi



J.B.Botirov

Umumiy yig'ilish bayoni imzolangan sana: " __ " _____ 2023 yil.